

№ 12-01-11-26
2025yil «12» avgust

T A S D I Q L A Y M A N
“O‘zavtosanoat” AJ
Boshqaruv raisi

2025-yil “____ - _____”
U.Rozukulov

**“O‘zavtosanoat” AJning turli masalalar bo‘yicha yig‘ilish
B A Y O N N O M A S I**

2025-yil ____ - _____

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi:

“O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi
U.Rozukulov

Qatnashdilar:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi mas‘ul xodimi M.Boxodirov,
Hisob palatasi mas‘ul xodimi Sh.Karimov,
Adliya vazirligi mas‘ul xodimi J.Niyazov,
Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari, tarkibiy
bo‘linma rahbarlari va korxonalar ijro
nazoratiga mas‘ul xodimlari

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil
21-iyuldagi 07-15-18-son topshirig‘iga asosan “O‘zavtosanoat”
aksiyadorlik jamiyatida o‘tkazilgan iqtisodiy o‘qish to‘g‘risida**

*(U.Rozukulov, M.Boxodirov, Sh.Karimov, J.Niyazov, B.Rahmonov, D.Muxamedov
N.Latipov, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari U.Rozukulov)*

Kun tartibidagi masala bo‘yicha “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi U.Rozukulov so‘zga chiqib, iqtisodiy o‘qishni ochib berdi hamda yig‘ilish qatnashchilariga yig‘ilishda ishtirok etayotgan mas‘ul tashkilot xodimlari bilan tanishtirdi va taqdimot o‘tkazish uchun Ma‘muriyat va hujjatlar ijro nazorati boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari N.Latipovga so‘z berdi.

Shundan so'ng, Ma'muriyat va hujjatlar ijro nazorati boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari N.Latipov so'zga chiqib, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 2025-yilning I yarim yilligida ijrosini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda 2025-yilning II yarim yilligida ijro intizomini yanada mustahkamlash bo'yicha takliflar to'g'risida"gi taqdimoti bilan yig'ilish qatnashchilarini tanishtirdi.

Taqdimotda, ijro intizomini ta'minlashdagi huquqiy asoslar, jamiyatning ichki edo.uzavtosanoat.uz tizimida I yarim yilligida umumiy hujjatlar aylanmasi, 1a kartotekasidagi hujjatlar monitoringi moduli, 2025-yil I yarim yilligida ijro.gov.uz tizimida ijrosi ta'minlangan va nazoratdan yechilgan topshiriqlar hamda ijro muddati 2025-yil II yarim yillikda keladigan topshiriqlar to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-dekabr kuni avtomobil sanoatida 2025-yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda berilgan 55-son topshiriqlar ijrosi haqidagi tahliliy ma'lumotlar, boshqarma tomonidan I yarim yillikda jamiyat hodimlariga ijro intizomi bo'yicha o'tkazilgan o'quv-amaliy seminarlar hamda ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ishlar, mavjud mummolar hamda ularni bartaraf etish choralari mavzusidagi tahliliy ma'lumotlarni berib o'tdi.

Yig'ilishda, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi mas'ul xodimi Sh.Karimov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son "Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining asosiy maqsadi, ijro intizomini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari, ijro intizomiga mas'ul tarkibiy bo'linmalarning asosiy faoliyat yo'nalishlari haqida yig'ilish ishtirokchilariga tushuntirishlar berdi.

Iqtisodiy o'qishning taqdimot ma'lumotlaridan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi M.Boxodirov, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi mas'ul xodimi Sh.Karimov va O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri mas'ul xodimi J.Niyazov tomonidan berilgan takliflarni inobatga olib, majlis

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-117-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ma‘muriyat va hujjatlar ijro nazorati boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari N.Latipovning taqdimoti ma‘lumot va ish faoliyatida foydalanish uchun qabul qilinsin.

3. “O‘zavtosanoat” AJ asosiy ijrochi sifatida 2025-yil avgust oyida bajarilishi lozim bo‘lgan ijro.gov.uz tizimidagi topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha Yo‘l xaritaga (24.07.2025-yil, 12-01-18-32-son) asosan mas‘ul xodimlar (*M.Raximov 2 ta, N.Alimov 1 ta, G‘.Xusainov 1 ta*) o‘z vaqtida tizimga ma‘lumotlarni kiritib, nazoratdan yechilishini ta‘minlasin.

4. Ijro.gov.uz tizimidagi 2025-yil II yarim yilligida ijro muddati keladigan topshiriqlar quyidagi ilovalarga muvofiq tasdiqlasin:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlar ro‘yxati 1-ilova;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlar ro‘yxati 2-ilova;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlar ro‘yxati 3-ilova;
- O‘zbekiston Respublikasi Hukumat komissiyasining topshiriqlari ro‘yxati 4-ilova.

5. “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv raisining barcha o‘rinbosarlari hamda tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlari ushbu bayonning 4-bandida belgilab berilgan ijro.gov.uz tizimidagi 2025-yil II yarim yilligida ijro muddati keladigan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hamda tizimda nazoratdan yechilishini ta‘minlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori talablari asosida, topshiriqlar ijrosini kunlik monitoring va muhokama qilish bilan birga, muntazam ravishda boshqaruv raisi apparat yig‘ilishlarida tanqidiy ko‘rib borish va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan

xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko'rib borish to'g'risida takliflar kiritib borilsin.

7. Ma'muriyat va hujjatlar ijrosini nazorat qilish boshqarmasi (Latipov):

7.1. Jamiyatning markaziy apparati va tizim korxonalari xodimlari uchun hujjatlar bilan ishlash, ijro intizomini mustahkamlash borasida bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv-seminarlar tashkil etilsin;

7.2. Mazkur bayon va ilovalarni jamiyatning tarkibiy bo'linma rahbarlari va tizim korxonalariga yetkazilishini ta'minlansin.

8. Mazkur bayon topshiriqlari ijrosini nazorat qilish Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari B.Rahmonov zimmasiga yuklansin.